
KAM TA'MINLANGAN, EHTIYOJMAND OILALARGA AMALIY YORDAM BERILDI



#Inson_qadri_uchun

Qo'shtepa tumanida kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda og'ir ahvoldagi bemorlarni sog'ligini tiklashlari uchun ularga saxovat va ko'mak ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, tuman Xalq qabulxonasiga kelib tuman hokimi va sektor rahbarlariga ijtimoiy ahvoli og'irligini ma'lum qilib, amaliy yordam berishni so'ragan 3 nafar fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal etildi. Tuman hokimi Ilyosbek Novikov hamda sektor rahbarlari ko'magida ushbu ehtiyojmand oilalarga moddiy yordam ajratib berildi.



Qo'shtepa tumanidagi saxovatpesha fermerlar tomonidan kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Shodlik MFYda yashovchi 1-guruh nogironi N.Tojiboyevga ikki million so'm, Dehqonobod MFYda yashovchi 2-guruh nogironi Dilshod Mo'ydinovga besh million so'm hamda Istiqbol MFYda yashovchi Masturaxon Hokimovaga besh million so'm moddiy yordam berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-07-05 09:26:23